



ADABIY TIL VA XORAZM SHEVALARIDA EGALIK VA KELISHIK QO'SHIMCHALARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'naliishi 2-bosqich talabasi

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasi assisenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10693468>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 17-fevral 2024 yil

Ma'qullandi: 19-fevral 2024 yil

Nashr qilindi: 22-fevral 2024 yil

KEY WORDS

sheva, qo'shimcha, egalik, kelishik,
adabiy til, shevasi, o'g'uz, turkiy til

ABSTRACT

Ushbu maqolada egalik va kelishik qo'shimchalarining adabiy va shevalardagi qo'llanish doirasi o'r ganilgan. Bu qo'shimchalarni o'rganish davomida xalq tilining boyligini imkon boricha ko'rsatib berilgan.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi adabiy tilimizning rivojini ta'minlab beradigan muhim voqeа bo'ldi. O'zbek adabiy tili turli xalqlarning adabiy tili rivojlanishi tufayli yanada rivojlanib bormoqda. Adabiy til bu – yozma tildir. U vazifasidan kelib chiqqan holda shevalar asosida ishlab chiqiladi. Adabiy til va milliy til o'rtasida ham juda katta farq bor. Milliy til bir tilning egasi bo'lgan xalq birlashib, millatni tashkil etganda vujudga keladi. Har qanday adabiy til ham tez fursatlarda milliy til bo'la olmaydi. Hozirgi kunda ko'pchilik davlatlarda sheva va adabiy tillardan teng foydalani moqda. Bugunga qadar o'zbek shevalari adabiy tilga qiyoslab o'rganib kelinmoqda va qiyosiy va tavsifiy metoddan foydalani moqda. Adabiy tilning ham shevaning ham ikki xil shakli mavjud og'zaki va yozma.

Turkiy tilning dastlabki davrida yettita kelishik shakli bo'lgan. Lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita kelishik shakli mavjud. Bu oltita kelishik shakli shevalarda bundan ham kamayib boradi. O'g'uz, Toshkent, Farg'ona shevalarida asosan besh yoki to'rt kelishikdan keng foydalani ladi. Qaratqich va tushum kelishigi bir xil shaklda talaffuz qilinadi. (-ning -ni)

Ukam kitobimning bir varag'ini yirtibdi (adabiy)

Ukam kitobimni bir varoqini yirtibdi (sheva)

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga -ka -qa) Xorazm shevasida (-a -ya) shaklida talaffuz qilinadi.

Do'stim uyga tez borish uchun yaqin yo'lni tanladi. (adabiy)

Do'stim uya tez borishchun yaqin yo'lni tanladi. (sheva)

Egalik qo'shimchalari **BIRLIKDA**

KO'PLIKDA

I SHAXS

-im

-imiz

II SHAXS	-ing	-ingiz
III SHAXS	-i	-lari

Birlik adabiy til

Bosh kelishik: kitobi;

Tushum kelishik: kitobimni, kitobingni, kitobini;

Qaratqich kelishik: kitobimning, kitobingning, kitobining;

Jo'nalish kelishik: kitobimga, kitobingga, kitobiga;

O'rinn-payt kelishik: kitobimda, kitobingda, kitobida;

Chiqish kelishik: kitobimdan, kitobingdan, kitobidan;

Birlik shevada

Bosh kelishik: ktobi;

Tushum kelishik: ktobmmi, ktobngi, ktobni;

Qaratqich kelishik: ktobmmi, ktobngi, ktobni

Jo'nalish kelishik: ktobmo, ktobngo, ktobno

O'rinn-payt kelishik: kitobmdo, kitobngdo, kitobndo

Chiqish kelishik: ktobmdon, ktobngdon, ktobdon

Ko'plik adabiy til

Bosh kelishik: kitoblari;

Tushum kelishik: kitoblarimni, kitoblarining, kitoblarini;

Qaratqich kelishik: kitoblarimning, kitoblarining, kitoblarining;

Jo'nalish kelishik: kitoblarimga, kitoblaringga, kitoblariga;

O'rinn-payt kelishik: kitoblarimda, kitoblaringga, kitoblarida;

Chiqish kelishik: kitoblarimdan, kitoblaringga, kitoblaridan;

Ko'plik shevada

Bosh kelishik: ktoblari;

Tushum kelishik: ktoblrimni, ktobloringni, ktobloring;

Qaratqich kelishik: ktoblrimni, ktobloringni, ktobloring;

Jo'nalish kelishik: ktoblrima, ktobloringa, ktobloring;

O'rinn-payt kelishik: ktoblrimda, ktobloringda, ktobloring;

Chiqish kelishik: ktoblrimdon, ktobloringdon, ktoblording;

Xulosa qilib aytganda, adabiy til va Xorazm shevalarida egalik va kelishik qo'shimchalari shu tartibda yoziladi va shu tarzda o'qiladi. Ularni solishtirib o'rghanish talabalarga shevashunoslikni o'rghanishda yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Samixon Ahirboyev "O'zbek dialektologiyasi"
2. Fattoh Abdullayev " O'zbek tikining Xorazm shvalari"
3. Zoxira Xidraliyeva " O'zbek dialektologiyasi"
4. S.P.Tolstov " Po sledan drevne xorezmskoy sivilizatsii" 1948
5. G.Nepesov " Iz istorii Xorezmskoy revolyutsii" 1962
6. X. S.Samatova, A.I.Eshonov "Obrazovanie Xorezmskoy i Buxarskoy narodnix Sovetshix Respublik" 1968

